



THE LIBERATION MOVEMENT OF UZBEK WOMEN AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY (ON THE EXAMPLES OF NURKHON YULDOSHKHUYAYEVA, TURSUNOY SAIDAZIMOVA, AND TOJIKHON SHODIYEVA)

Husnida Usmonova

2nd-year student at Fergana State University

husnidausmonova36@gmail.com

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Nurkhon Yuldashkhojayeva, Tursunoy Saidazimova, Tojikhon Shodiyeva, Hujum movement, women's liberation, burqa issue, Uzbek theater, cultural reforms, Soviet gender policy, Uzbekistan of the early 20th century.

Received: 05.05.26

Accepted: 06.05.26

Published: 07.05.26

Abstract: This article analyzes the entry of women into public life in Uzbekistan at the beginning of the 20th century, in the context of Soviet modernization and the "Attack" movement. The examples of the work of Nurkhon Yuldashkhojayeva, Tursunoy Saidazimova, and Tojikhon Shodiyeva highlight the courage of women in removing the veil, performing on the theater stage, and in public work. The complex and tragic nature of this process is revealed through traditional patriarchal resistance, honor killings, and Soviet repression. The study shows that these women became important symbols of gender equality and cultural reforms in Uzbek society, but were victimized by coercive Soviet policies.

XX ASR BOSHLARIDA O‘ZBEK AYOLLARINING OZODLIK HARAKATI (NURXON YO‘LDOSH XO‘JAYEVA, TURSUNOY SAIDAZIMOVA VA TOJIXON SHODIYEVA MISOLIDA)

Husnida Usmonova

Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich talabasi

husnidausmonova36@gmail.com

Farg‘ona, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Nurxon Yo‘ldoshxo‘jayeva, Tursunoy Saidazimova, Tojixon Shodiyeva, Hujum harakati, xotin-
Annotatsiya: Mazkur maqola XX asr boshlarida O‘zbekistonda sovet modernizatsiyasi va “Hujum” harakati

qizlar ozodligi, paranji masalasi, o'zbek teatri, madaniy islohotlar, sovet gender siyosati, XX asr boshlari O'zbekistoni.

sharoitida xotin-qizlarning jamiyat hayotiga kirib kelishi, ularning san'at, matbuot va siyosiy faolligini tahlil qilinadi. Nurxon Yo'ldoshxo'jayeva, Tursunoy Saidazimova va Tojixon Shodiyeva faoliyati misolida ayollarning paranji yechish, teatr sahnasida chiqish va jamoat ishlaridagi jasorati yoritiladi. An'anaviy patriarxal qarshiliklar, nomus qotilliklari va sovet repressiyalari orqali bu jarayonning murakkab va fojiali tabiati ochib beriladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, mazkur ayollar o'zbek jamiyatida gender tengligi va madaniy islohotlarning muhim ramzi bo'lib qoldi, ammo majburiy sovet siyosati ularni qurbon qildi.

ДВИЖЕНИЕ ЗА ОСВОБОЖДЕНИЕ УЗБЕКСКИХ ЖЕНЩИН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА (НА ПРИМЕРЕ НУРХОН ЙЎЛДОШХЎЖАЕВА, ТУРСУНОЙ САИДАЗИМОВА И ТОЖИХОН ШОДИЕВА)

Хуснида Усмонова

Студентка 2-го курса Ферганский государственный университет

husnidausmonova36@gmail.com

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Нурхон Юлдашходжаева, Турсунной Сайдазимова, Тоджихон Шодиева, движение «Худжум», женское освобождение, проблема бурки, узбекский театр, культурные реформы, советская гендерная политика, Узбекистан начала XX века.

Аннотация: В данной статье анализируется вхождение женщин в общественную жизнь Узбекистана в начале XX века в контексте советской модернизации и движения «Атака». Примеры деятельности Нурхон Юлдашходжаевой, Турсунной Сайдазимовой и Тоджихон Шодиевой подчеркивают смелость женщин в снятии паранджи, выступлениях на театральной сцене и общественной деятельности. Сложный и трагический характер этого процесса раскрывается через традиционное патриархальное сопротивление, убийства чести и советские репрессии. Исследование показывает, что эти женщины стали важными символами гендерного равенства и культурных реформ в узбекском обществе, но стали жертвами принудительной советской политики.

Kirish. Bugun Yangi O‘zbekiston poydevorini barpo etar ekanmiz, jamiyatimizning har bir jabhasida xotin-qizlarga bo‘lgan ehtirom davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlab so‘zlagan nutqida ham: “Yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatini ta‘minlash, muammolarini hal qilish bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratdik... Biz yurtimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish yo‘lida izchil islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Yangi O‘zbekistonda butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimiz uchun ham munosib sharoitlarni yaratib berish – eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi”[1] degan so‘zlari bunga isbot bo‘la oladi.

Materiallar va metodlar. Tarixga yuzlanar ekanmiz ayollar har doim ham bugungidek tenglikda, imtiyozlarga asoslangan jamiyatda yashagan deyish mubolag‘a bo‘ladi albatta. XX asr boshlarida Turkiston hududida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, xususan, jadidchilik g‘oyalari va keyinchalik sovet hokimiyatining “Hujum” kampaniyasi (1927-yildan boshlab) jamiyatning barcha qatlamlariga, ayniqsa xotin-qizlar mavqeiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Asrlar davomida ayollarning ijtimoiy o‘rni oila doirasi bilan cheklangan bo‘lsa, 1920-yillardan boshlab ularni ta‘limga jalb qilish, kasb egallash, san‘at va jamoat ishlariga kiritish kabi yangi qarashlar shakllana boshladi[2.392]. “Hujum” (hujum – hujum qilish) nafaqat paranji va chachvonni yechish, balki ayollarni yangi sovet jamiyatining faol a‘zolariga aylantirish siyosati edi. Lekin bu davr uchun singdirib bo‘mas o‘zgarish edi. Teatr sovet hokimiyatining asosiy targ‘ibot vositasiga aylangan edi. Teatr va matbuot yangi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi asosiy vositalarga aylandi. Quyida keltirilgan uch shaxs — Nurxon Yo‘ldoshxo‘jayeva, Tursunoy Saidazimova va Tojixon Shodiyeva — bu harakatning eng yorqin va fojiali timsollari bo‘lib, ularning taqdiri sovet modernizatsiyasining ikki tomonlamaligini yaqqol ko‘rsatadi.

Bu davr o‘zbek jamiyatida sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni oddiy “ozodlik” deb atash yetarli emas. Jadidchilik harakati ichki islohot va milliy uyg‘onish g‘oyalari asoslangan bo‘lsa, sovet “Hujum”i esa markaziy hokimiyatning majburiy modernizatsiya siyosati edi. Natijada, ayollar ozodligi nafaqat ijobiy yutuq, balki jamiyatning chuqur ichki ziddiyatlarini ochib berdi, bir tomondan yangi imkoniyatlar paydo bo‘ldi, ikkinchi tomondan asrlar davomida shakllangan patriarxal tuzum va diniy qadriyatlar keskin qarshilik ko‘rsatdi. 1927–1929-yillarda kamida 2000 nafar ayol nomus qotilligiga duch keldi[3.320]. Bu jarayon ayollarni “qahramon” qilish bilan birga, ularni eng zaif qurbonlarga aylantirdi ham.

Muhokama va natijalar. Nurxon Yo‘ldoshxo‘jayeva (1913–1929) sahnadagi birinchi jasorat Nurxon Yo‘ldoshxo‘jayeva 1913-yilda Marg‘ilonda yani hozirgi kundagi Toshloq tumanida tug‘ilgan. Qatag‘on va o‘ta diniy muhitda o‘sgan bo‘lsa-da, 1928-yilda uyidan qochib bo‘lsada, Samarqanddagi Muhitdin Qoriyoqubov rahbarligidagi konsert-etnografik ansambliga qo‘shildi. Usta Olim Komilovdan raqs sana‘tidan saboq oldi, hamkasblari orasida Tamaraxonim va Gavhar Rahimovalar ham bor edi[4.155].

1928-yil Xalqaro xotin-qizlar kunida Nurxon va Tursunoy Saidazimova sahnada paranjisini yechib, ochiq raqs tushdi. Bu harakat o‘sha davr uchun inqilobiy qadam edi: u nafaqat shaxsiy ozodlikni, balki butun jamiyatning an‘anaviy qarashlariga qarshi ochiq chiqishni anglatardi.

1929-yili Nurxonning sahnadagi harakati oddiy raqs emas, balki ramziy inqilob edi. Paranj ostida yashirinib yurgan ayolning ochiq sahnaga chiqishi jamiyatning ko‘z o‘ngida “yangi ayol” obrazini yaratdi. Bu jasorat minglab qizlarga ilhom bergan bo‘lsa-da, u shaxsiy hayotning qanchalik xavf ostida qolganini ko‘rsatardi. Sahnada ozodlik ramzi bo‘lgan Nurxon uyiga qaytgan zahoti oilaviy “nomus” tushunchasi tomonidan qurbon bo‘ldi. Bu holat sovet modernizatsiyasining cheklanganligini ochib beradi: hokimiyat sahnada qo‘llab-quvvatlasa-da, oila va mahalla darajasida himoya qila olmadi.

Ammo bu jasorat qimmatga tushdi. 1929-yil 1-iyulda ansambl Marg‘ilonga gastrolga kelganda Nurxon oilasini ziyorat qilishga qaror qildi. Akasi Salixo‘ja uni pichoqlab o‘ldirdi — bu otasi Yo‘ldoshxo‘ja va ruhoniy mulla Kamol G‘iyosov talabi bilan sodir etilgan oldindan rejalashtirilgan qotillik edi. Dafn marosimida minglab odamlar ishtirok etdi, ko‘plab ayollar paranjisini yechib olovga tashladi. Bu voqea “Hujum” harakatini yanada kuchaytirdi, ammo mahalliy qarshilikning ta‘siri anchagacha davom etdi.

Nurxonning o‘limi sovet hukumati tomonidan “mard sovet namunasi” sifatida ulug‘landi. Komil Yashin asari va To‘xtasin Jalilov musiqasiga asoslangan “Nurxon” musiqali dramasi yaratildi. Marg‘ilonda 1967–1968-yillarda unga atab haykal ham o‘rnatildi, bundan tashqari Nurxon tug‘ulib o‘sgan qishlog‘iga uning nomi berildi, (Toshloq tumanida hozir ham bu qishloq mavjud) ammo 1993-yilda postsovet davrida “axloqsizlik ramzi” degan tamg‘a ostida olib tashlandi. Bugungi kunda uning taqdiri gender tengligi muhokamalarida ramziy olmoqda. Bir tomondan ozodlik uchun kurash, ikkinchi tomondan majburiy sovetlashtirishning qurboni. Dafn marosimida yuz bergan ommaviy parangi yechish voqeasi ikki tomonlama ma‘no kasb etadi. Bir tomondan, Nurxonning o‘limi harakatni yangi bosqichga olib chiqdi va ayollarga “qahramonlik” namunasi bo‘ldi. Ikkinchi tomondan, bu voqea mahalliy jamiyatning chuqur konservativligini namoyon qildi: minglab odamlar yig‘ilgan joyda ham qarshilik kuchli edi. Bu ziddiyat sovet

siyosatining yuqoridan majburlash usulining samarasizligini ko'rsatadi – o'zgarish tashqi ko'rinishda bo'lsa-da, ichki ongda sekin kechadi.

Nurxon haykali va dramasi sovet davrida “qahramonlik” ramzi bo'lgan bo'lsa, mustaqillik yillarida uning “axloqsizlik” deb baholanishi postsovet jamiyatining o'z o'tmishiga qarshi munosabatini aks ettiradi. Bu o'zgarish ayollar ozodligi mavzusining siyosiy kon'yunkturaga qanchalik bog'liq ekanini ko'rsatadi yani bir tuzumda ulug'lanadi, boshqasida rad etiladi. Bugun uning taqdiri gender tengligi haqidagi bahslarda muhim saboq bo'lib qolmoqda – ozodlik uchun kurash har doim qurbon talab qiladi.

Tursunoy Saidazimova (1911–1928) — teatrning birinchi aktrisasi Tursunoy Saidazimova taxminan 1911-yilda Toshkentda tug'ilgan. U birinchi o'zbek aktrisasi sifatida teatr sohasiga salmoqli hissa qo'shdi. 1924–1927-yillarda Moskvadagi O'zbek drama studiyasida o'qidi, Hamza Niyoziy shogirdi bo'ldi. “Revizor”, “Malikai Turandot”, “Halima” spektakllarida yorqin obrazlar yaratdi va musiqali drama janrida dramatik va vokal elementlarni birlashtirgan ilk ijrochilardan bo'ldi[5.189].

1928-yil 10-mayda, 17 yoshida paranjisiz chiqishi uchun eri tomonidan vahshiyona o'ldirildi. Hamza Niyoziy unga “Tursunoy marsiyasi” she'rini bag'ishlab, dafn marosimida o'qib, ko'pchilikni yig'latdi. Muhitdin Qoriyoqubov: “Dushmanlar ruxsat bermadi. Yaxshi, bitta shahid Tursunoy o'rniga yuztasini tarbiyalayman”, — degan edi[6.32]. Uning o'limi o'zbek teatr jamoatchiligida katta aks-sado berdi va ayollar ozodligi kurashida ramzga aylandi.

Tursunoyning qisqa, ammo yorqin ijodi teatrni oddiy san'atdan ijtimoiy qurolga aylantirdi. U nafaqat sahnada o'ynadi, balki o'zbek ayolining yangi obrazini yaratdi – mustaqil, iste'dodli va jamiyatning faol a'zosi. Biroq eri tomonidan o'ldirilishi shuni ko'rsatadiki, san'at maydonidagi erkinlik oila ichidagi patriarxal zo'rlikni yo'q qila olmadi. Bu holat sovet modernizatsiyasining “ikki tomonlama qilichini yaqqol namoyon etadi: bir tomondan ayolni sahnaga olib chiqdi, ikkinchi tomondan shaxsiy hayotini himoyasiz qoldirdi.

Tursunoyning faoliyati shuni ko'rsatadiki, teatr nafaqat san'at, balki ijtimoiy o'zgarishning kuchli quroli edi. Biroq bu qurol ikki tomonlama: bir tomondan ayollarni erkinlashtirdi, ikkinchi tomondan ularni oila va jamiyat bosimi ostida qoldirdi. Uning qisqa umri sovet modernizatsiyasining tez va shafqatsizligini ramziy jihatdan ifodalaydi. Tursunoy taqdiri orqali biz ko'ramizki, san'atdagi inqilobiy o'zgarishlar jamiyatning barcha qatlamlariga birdek yetib bormaydi. Moskva studiyasida o'qigan yosh aktrisa uchun yangi dunyo ochilgan bo'lsa-da, Toshkent va Buxoroda eski qarashlar hali ham hukmron edi. Bu ziddiyat ayollar ozodligi

harakatining asosiy muammosini ochib beradi – tashqi o'zgarishlar ichki ongni o'zgartirishdan ancha oldinda ekanini ko'rsatadi.

Tojixon Shodiyeva (1905–1981) — jamoat va siyosiy kurashchi Tojixon Shodiyeva 1905-yilda Marg'ilon yaqinidagi Yangichek qishlog'ida (Farg'ona viloyati) tug'ilgan. 12 yoshida 55 yoshli erkakka ikkinchi xotin qilib uzatilgan, ammo Jenotdel (ayollar bo'limi) uni qutqargan. U ommaviy ravishda paranjisini yechgan eng yosh farg'onalik ayollardan biri bo'ldi. “Yangi yo'l” (keyin “Saodat”) gazetasiga muharrirlik qildi, Kommunistik partiyaning faol a'zosi edi[7.48]. Hujum harakatida katta rol o'ynadi, ayollar bo'limlarida instruktor va mudir bo'lib ishladi, minglab ayollarni savodxonlikka va partiya ishlariga jalb etdi.

1937-yil 24-sentabrda (ba'zi manbalarda 1938-yilda) Stalin qatag'oni davrida hibsga olinib, Magadan lageriga surgun qilindi[8.185]. Stalin o'limidan keyin rehabilitatsiya qilindi, mukofotlari (Lenin ordeni, Oktabr inqilobi ordeni, Mehnat Qizil Bayroq ordeni) qaytarildi. Keyinchalik kolxoz raisi bo'ldi. Vafotidan keyin boshqargan kolxoz uning nomiga qayta nomlandi, Farg'ona tumanida byusti o'rnatildi.

Tojixonning hayoti boshqa ikki ayoldan farqli o'laroq, nafaqat shaxsiy jasorat, balki tashkiliy va siyosiy faoliyatni namoyon etadi. U oddiy qishloq qizidan kolxoz raisigacha ko'tarilishi sovet tizimining ayollarga bergan imkoniyatlarini ko'rsatadi. Biroq Stalin qatag'oni davrida hibsga olinishi va lagerda qiynoqqa tushishi tizimning ichki ziddiyatini ochib beradi: o'zi yaratgan “ozod ayol”ni keyin o'zi yo'q qildi. Bu holat gender siyosatining nafaqat ozodlik, balki siyosiy nazorat vositasi bo'lganligini isbotlaydi.

Tojixon nafaqat parangi yechdi, balki ayollar huquqlari uchun faol kurashdi. Biroq uning taqdiri ham fojiali kechdi. Sovet tizimining o'zi yaratgan “ozod ayol”ni keyinroq qatag'on qildi. Bu holat sovet gender siyosatining ichki ziddiyatini ochib beradi ozodlik va'da qilinib, keyin repressiya qo'llanildi. Tojixonning rehabilitatsiyasi va mukofotlarining qaytarilishi sovet tizimining o'z xatolarini tan olishiga misol bo'lsa-da, bu kechiktirilgan adolat edi. Uning kolxoz raisi bo'lib ishlashi esa ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy faolligining yangi bosqichini ko'rsatadi. Lekin bu muvaffaqiyat ham fojia bilan bog'liq – u millionlab ayollar uchun yo'l ochgan bo'lsa-da, o'zi repressiya qurboni bo'ldi.

Xulosa. Nurxon, Tursunoy va Tojixon XX asr boshlaridagi o'zbek ayollarining ozodlik harakatining uch xil timsoli: madaniy jasorat, san'at orqali kurash va siyosiy tashkilotchilik. Ularning faoliyati “Hujum” harakatining ijobiy tomonlarini (ta'lim, kasb, ijtimoiy faollik) ko'rsatsa-da, fojiali oqibatlarini (nomus qotilliklari, Stalin repressiyalari) ham yashirmaydi. Marianna Kamp va Douglas Northrop kabi tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bu harakat bir

tomondan ayollarni ozod qilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sovet mustamlakachilik siyosatining bir qismi edi. Bu uch ayolning taqdiri orqali biz sovet modernizatsiyasining asosiy paradoksini ko'ramiz: u ayollarga huquq va imkoniyat berdi, ammo bu huquqni o'zi cheklab qo'yishi mumkin edi. Nurxon va Tursunoyning nomus qotilliklari mahalliy qarshilikning kuchini, Tojixonning repressiyasi esa markaziy hokimiyatning shafqatsizligini ko'rsatadi. Natijada, "Hujum" harakati ijobiy o'zgarishlarni boshlab bergan bo'lsa-da, u haqiqiy gender tengligini emas, balki yangi turdagi muammolarni yaratdi.

Bugungi O'zbekistonda gender tengligi masalalari hali ham dolzarb. Postsovet davrida ba'zi yodgorliklar olib tashlangan bo'lsa-da, bu ayollarning nomi maktablar, ko'chalar, san'at asarlari va ilmiy tadqiqotlarda saqlanmoqda. Ularning hayoti shuni o'rgatadiki, haqiqiy ozodlik majburiy emas, balki ichki ishonch va jamiyatning o'zgarishi orqali keladi. XX asr boshlaridagi kurashlar bugungi avlod ayollari uchun muhim tarixiy tajriba bo'lib qolmoqda.

Ushbu uch shaxsning hayoti bugungi kun uchun ham dolzarb saboqdir. Ular ko'rsatdiki, jamiyatdagi haqiqiy o'zgarish faqat qonun va siyosat bilan emas, balki har bir oila, mahalla va ong darajasida sodir bo'ladi. Nurxon, Tursunoy va Tojixonning qurbonligi bugungi gender tengligi siyosatiga "majburiy emas, balki ichki" tamoyilini o'rgatadi – faqat shu yo'l bilan o'tmish fojialari takrorlanmaydi va haqiqiy ozodlikka erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 7-mart, 2024-yil. Rasmiy manba: president.uz.
2. Northrop, Douglas. *Veiled Empire: Gender and Rigalism in Central Asia*. – Ithaca: Cornell University Press, 2004. 392.P
3. Kamp, Marianne. *The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism*. – Seattle: University of Washington Press, 2006. 320.P
4. Qodirov M. *O'zbek teatri tarixi*:– Toshkent: O'qituvchi, 2003. 155-b.
5. Kamp Marianne. *The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism*. – Seattle: University of Washington Press, 2006. – P. 186-189.
6. Saidazimova Tursunoy // *O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi*. S-harfi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B. 32.
7. To'ximov N., Mamajonov S. *O'zbekiston ayollari: kecha va bugun*. – Toshkent: Sharq, 2002. – B. 45-48.
8. Shamsutdinov R. *O'zbekistonda sovet davlatining qatag'on siyosati va uning oqibatlari*. – Toshkent: Sharq, 2012. – B.185.